
YOSH SPORTCHIMIZGA ISHONCH VA E'TIBOR



Qo'shtepa tumanida 10-11 yosh toifasida o'tkazilgan shaxmat musobaqasida 20-umumiy o'rta ta'lim maktabining o'quvchisi Xushnutbek A'zamjonov faxrli 1-o'rinni egallagan edi.

Yosh sportchimizni har tomonlama rag'batlantirish va qo'llab quvvatlash, yangi va yana yangi g'alabalar sari da'vat etish maqsadida Yoshlar ishlari agentligi Qo'shtepa tumani bo'limi rahbari A.Abdumalikov va tuman axborot-kutubxona markazi direktori O.Yoqubovlar Xushnutbek A'zamjonovning yashash manziliga tashrif buyurdilar.



Xushnutbek A'zamjonovni qo'llab-quvvatlash maqsadida unga esdalik sovg'alari topshirildi. Yosh sportchi bilan yurtimizda yoshlarga yaratilayotgan sharoitlar haqida fikr almashildi. Suhbat davomida ertamiz egalarining barkamol bo'lib voyaga yetishlari uchun tuman hokimi I.Novikov tomonidan barcha shart-sharoitlar yaratib berilayotganligi to'g'risida ham so'z bordi.

Biz ham yosh sportchimizga ishonch bildirilib, yangi zafarlar va yutuqlari sari omad yor bo'lishini tilaymiz!

Qo'shtepa tumani hokimligi Axborot xizmati.

[Bizni ijtimoiy tarmoqlarda kuzating](#)

[Facebook](#),

2021-02-09 16:56:35